

TASDIQLAYMAN

“O‘zenergosotish” AJ

Boshqaruvi raisi

J.O.Obidjonov

2026-yil “ ”

**“O‘ZENERGOSOTISH” AKSIYADORLIK JAMIYATINING ROTATSIYA
QILISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Kelishildi

**Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari**

J.T. Ashirboyev

**Yuridik bo‘lim
boshlig‘i**

A.Ro‘zimov

**Yig‘ma axborot-tahlil
bo‘limi boshlig‘i**

U.Artikov

**Ishlarni yuritish,
ma‘muriy-xo‘jalik va
devonxona bo‘limi boshlig‘i**

A.Isamuxamedov

Ishlab chiqdi va kiritdi:

**Xodimlar bilan ishlash, kadrlarni
tayyorlash va qayta tayyorlash
bo‘limi boshlig‘i**

F.Turgunova

**“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining rotatsiya
qilish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati xodimlarini rotatsiya qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Rotatsiya – Jamiyat xodimlarini egallab turgan lavozimdan teng bo‘lgan boshqa lavozimga o‘tkazish;

majburiy rotatsiya – manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida Jamiyat xodimini egallab turgan lavozimdan teng bo‘lgan boshqa lavozimga majburiy ravishda o‘tkazish;

teng lavozim – lavozimlarning guruhлари, toifalari, tatbiq etiladigan malaka darajalari hamda lavozim razryadi bo‘yicha teng bo‘lgan faoliyat lavozimlari;

rejali tartibda rotatsiya qilish – Jamiyat tomonidan xodimlarni egallab turgan lavozimidan boshqa teng lavozimga o‘z roziligi bilan tasdiqlangan reja asosida o‘tkazish;

rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish – muayyan lavozimda bo‘lish muddatidan qat’i nazar, xodimni rejadan tashqari tartibda o‘z roziligi bilan teng lavozimga o‘tkazish.

4. Jamiyat xodimlarini rotatsiya qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

xodimning shaxsiy va kasbga oid sifatлари, shuningdek, boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish;

rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish, xodimlarning salohiyati va tajribasidan oqilona foydalanish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish.

5. Quyidagi xodimlar rotatsiya qilinmaydi:

tayyorlash, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o‘tayotgan;

homilador ayollar, shuningdek, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollar;

tibbiy xulosaga asosan o'zlarining yoki ular bilan birga yashovchi oila a'zolari sog'lig'ining holati rotatsiya o'tkazilayotgan xodim lavozimi bo'yicha xizmat majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatini bermaydiganlar;

pensiya yoshiga yetishiga bir yil qolganlar.

6. Xodimlar bilan ishlash, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'limi va Komplaens nazorati xizmati rotatsiyasini amalga oshirish masalalari bo'yicha davlat organining mas'ul tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

7. Jamiyat xodimlarini rotatsiya qilish majburiy, rejali va rejadan tashqari tartibda amalga oshiriladi.

II. Xodimlarni rejali va rejadan tashqari rotatsiya qilish

8. Ushbu Nizomning 4-bandida keltirilgan maqsadlarni ko'zlagan holda, Jamiyat xodimlarini rejali va rejadan tashqari tartibda ularning roziligi bilan rotatsiya qilish huquqiga ega.

9. Komplaens nazorati xizmati korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "yuqori" bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantiradi hamda ushbu ro'yxatdagi xodimlar yuzasidan takliflar kiritib boradi.

10. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "yuqori" bo'lgan lavozimlarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar rejali tartibda rotatsiya qilinadi.

11. Jamiyat xodimlarini rejali va rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish bo'yicha qaror Boshqaruv Raisi tomonidan qabul qilinadi. Bunda, rejali tartibda rotatsiya qilinishi ko'zda tutilgan xodimlar egallab turgan lavozimda kamida uch yil faoliyat yuritgan bo'lishi shart.

12. Xodimlarni rejadan tashqari tartibda rotatsiya qilish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

xodimning mehnatidan oqilona foydalanish zaruriyati;

xodimning shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini rivojlantirish, bo'sh o'rinlarni to'ldirish zaruriyati, ularning turli soha va yo'nalishlarda bilim va tajribasini oshirish;

xodimning yangi mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik yoki qayta tayyorgarlikdan o'tganligi;

tashkiliy-shtat tadbirlari o'tkazilishi;

manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish;
xodimning sog'lig'i o'zi ishlab turgan lavozimda ishlash imkonini
bermaydigan darajada o'zgarganligi;
xodimga nisbatan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasi;
xodimning shaxsiy tashabbusi.

13. Rotatsiya xodim o'tadigan lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga
javob berishi sharti bilan amalga oshiriladi.

14. Xodimni rejali tartibda rotatsiya qilish belgilangan muddat yetib
kelgandan so'ng amalga oshiriladi. Bunda, kamida bir oy oldin xodimni rotatsiya
qilish bo'yicha xabardor qilishi talab etiladi.

15. Rotatsiya muddati yetib kelgan taqdirda, xodim o'tkazilishi kutilayotgan
lavozim vakant bo'lmagan taqdirda, mazkur lavozim vakant bo'lgunga qadar xodim
egallab turgan lavozimda faoliyatini davom ettiradi.

III. Xodimlarning rotatsiyasiga oid huquqiy va ijtimoiy kafolatlar

16. Rotatsiya asosida boshqa lavozimga tayinlangan xodimning samarali
faoliyati uchun zarur bo'lgan qo'shimcha kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va
malakalarni egallashi maqsadida Jamiyat tomonidan qayta tayyorlash kurslari
tashkil etiladi.

17. Xodimlarni lavozim maoshi yoki ijtimoiy kafolatlari rotatsiya qilinadigan
lavozimidan past bo'lgan lavozimga rotatsiyani amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

18. Yangi lavozimda xodimga ma'lum muddat (masalan, 1 oy) moslashish
uchun imkoniyat beriladi va bu davrda undan yuqori ish natijadorligi talab etilmaydi.

IV. Yakunlovchi qoidalar

19. Rotatsiya tartibida boshqa lavozimga tayinlangan xodim avvalgi
lavozimiga vaqtincha xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

20. Xodimlarning rotatsiyasiga oid ushbu Nizomda nazarda tutilmagan
masalalar mehnat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

21. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik
hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

22. Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik
hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.